

12-DARS. SHIRIN NOK

Dars maqsadlari:

- hajmli applikatsiya yaratish uchun qog'ozdan shakllarni kesish, qirgish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- fazoviy fikrlash va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ko'z bilan chamalash va nozik motorika qobiliyatlarini takomillashtirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchiga dars mavzusini topishmoqlar bilan e'lon qilish tavsiya etiladi:

Qaysi meva mazali,
Lampochkaga o'xshaydi,
Yashil yon tomoni quyoshda isiydi,
U sarg'ayib, qizarib boradi?

(Nok)

Olmaga kirib olishi mumkin,
So'ng uni yeb qo'yishi ham:
Barcha mazali narsani yeb,
Yana sudralib chiqib ketadi.

(Qurt)

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Nokning ustidagi qurtlar nimaga o'xshaydi? (*prujinaga*)

O'qituvchiga qog'oz tasmalaridan prujina shaklini yasashni ko'rgazmali tarzda namoyish etish tavsiya qilinadi.

Darsning bu qismi odatdagi tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnoma berilgan.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Avvalo o'quvchilarga rangli qog'ozdan nok shaklini yasash vazifasi beriladi. Nok simmetrik bo'lishi uchun rangli qog'oz varag'i ikkiga buklanadi va chizilgan yarim nok konturi bo'ylab qirqib olinadi. Keyin eni taxminan 0,5 cm bo'lgan ikkita rangli qog'oz tasmasidan "prujina-qurtcha" shaklini yasash kerak. Oxirida esa ishni yaproqchalar bilan bezab, yasalgan qurtchalarni mahkamlash lozim.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Dars yakuni zanjirli so'rov orqali chiqariladi. O'quvchilar navbatma-navbat bitta gapda darsda nimani o'rganganlarini, nima qiziqarli bo'lganini va qaysi jihatlar qiyinchilik tug'dirganini aytib berishadi.

Kutilayotgan natijalar:

– "prujina" shaklida buklangan qismlar bilan hajmli applikatsiya bajarish.

13-DARS. PRUJINALI QO'L MEHNAT BUYUMLARI

Dars maqsadlari:

- qog'oz bo'laklarini "prujina" usulida taxlash usulini mustahkamlash;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi savollar beradi:

1. O'tgan darsda nimalar qildingiz?
2. Qog'oz bo'laklarini buklashning qanday yangi usulini o'rgandingiz?

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

O'quvchilar darslikda taqdim etilgan yasama mahsulotlarning o'zlariga yoqqan variantini tanlashlari yoki o'zlarining original ishlarini o'ylab topishlari